

## MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON NEFT VA GAZ SANOATINING RIVOJLANISH TARIXI

**O‘. Bozorova**

Toshkent davlat texnika universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasida tayanch doktoranti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida neft va gaz sanoatida amalga oshirilgan tub islohotlar, soha infratuzilmasining modernizatsiyasi, xorijiy investorlar bilan hamkorlikda olib borilgan yirik loyihalar, eksport salohiyatining oshirilishi va energetik xavfsizlikka erishish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik barqarorlik va yashil energiyaga o‘tish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Neft, gaz, mustaqillik, O‘zbekiston, energetika siyosati, infratuzilma, O‘zbekneftgaz, eksport, CNPC, Lukoil, gaz quvuri, yashil energetika, xalqaro investitsiyalar.

Bugungi kunda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Ushbu islohotlar doirasida ayniqsa sanoat tarmoqlarining barqaror va izchil rivojlanishini ta‘minlash, ishlab chiqarish tizimlarini zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, shuningdek, ularni diversifikatsiya qilish muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ilg‘or ishlab chiqarish tajribalarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq etish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga intilinyapti.

Ma‘lumki, mamlakat iqtisodiy rivojlanishi va yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘ati ko‘p jihatdan real sektor – ya‘ni ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatining barqarorligi va samaradorligiga bevosita bog‘liq. Shu sababli har qanday davlat uchun sanoat tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning modernizatsiyasi, iqtisodiy muhitga mos ravishda moslashuvchanligini oshirish va zamon talablari asosida faoliyatini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida neft va gaz sanoati mamlakat energetika xavfsizligini ta‘minlashda hal qiluvchi strategik sohalardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Respublikada mavjud bo‘lgan tabiiy neft va gaz zaxiralari ularni izlab topish, qazib olish hamda sanoat ishlab chiqarish tizimlariga joriy etish orqali milliy energetika mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tabiiy gaz bugungi kunda O‘zbekistonning asosiy eksport mahsulotlaridan biri bo‘lib, mamlakatning valyuta tushumlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ichki neft ishlab chiqarishi ham mamlakatdagi yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish, sanoat va transport tarmoqlarining barqaror faoliyat yuritishini ta‘minlashda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, neft-gaz sanoatining rivoji nafaqat energetika xavfsizligiga xizmat qiladi, balki butun iqtisodiy tizimning faoliyati va rivojlanish sur‘atiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur sohaning modernizatsiyasi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlash – O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda muhim o‘rin egallaydi.

1991-yilda O‘zbekiston o‘zining davlat mustaqilligini e‘lon qilganidan so‘ng, mamlakat iqtisodiyotining strategik sohalarini mustaqil ravishda rivojlantirish zarurati tug‘ildi. Ayniqsa, tabiiy resurslarga boy mamlakatda neft va gaz sanoati iqtisodiy mustaqillik va milliy daromadning asosiy manbai sifatida ajralib turardi. Mustaqillikdan so‘ng bu soha tubdan qayta tashkil qilindi, yangi boshqaruv tizimi, investitsion muhit va texnologik infratuzilma shakllantirildi.

Mustaqillikdan keyin birinchi navbatda, sobiq ittifoqdan qolgan neft va gaz infratuzilmasi ustidan to‘liq milliy nazorat o‘rnatildi. 1992-yilda “O‘zbekneftgaz” davlat konserni tashkil qilindi. Bu korxonalar respublikadagi neft va gaz konlarini izlab topish, qazib olish, qayta ishlash va mahsulotlarni ichki hamda tashqi bozorlarga yetkazib berish bo‘yicha yagona markazga aylandi.

Konsern tuzilmasi orqali yoqilg‘i-energetika kompleksining boshqa tarmoqlari bilan ham uzviy aloqalar o‘rnatildi. Davlat tomonidan yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir qator qonunlar qabul qilindi. Shu bilan birga, sohadagi korxonalar aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tila boshlandi.

1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlaridan boshlab mamlakatda yirik gazni qayta ishlash va gaz-kimyoy loyihalari amalga oshirildi. Jumladan:

- Muborak gazni qayta ishlash zavodining quvvati oshirildi;
- Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi ishga tushirildi;
- Qandim, G‘uzor va Olot hududlarida yangi konlar ochildi va ulardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Ayni paytda mavjud gaz transporti tizimi ham bosqichma-bosqich yangilandi. Quvurlar rekonstruksiya qilinib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari joriy etildi. Bu esa energiya samaradorligini oshirib, yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumati xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e‘tibor qaratdi. Neft va gaz sanoatida quyidagi yirik xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirildi:

- CNPC (Xitoy) kompaniyasi bilan “Markaziy Osiyo – Xitoy” gaz quvuri loyihasi;
- Lukoil (Rossiya) kompaniyasi bilan “Qandim, Xausak, Shodi” gaz konlarini birgalikda o‘zlashtirish;
- KOGAS (Janubiy Koreya) bilan gazni qayta ishlash majmualari qurilishi;
- Petronas (Malayziya) bilan dengizda izlanish ishlari.

Ushbu loyihalar natijasida mamlakat xorijga gaz eksport qilish salohiyatiga ega bo‘ldi. Ayniqsa, 2009-yilda ishga tushgan “Markaziy Osiyo – Xitoy” gaz quvuri O‘zbekiston gazining yirik bozorlariga chiqish imkonini yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasida neft-gaz tarmog‘ini izchil va samarali rivojlantirish yo‘lida bir qator ustuvor yo‘nalishlar belgilanmoqda. Bu yo‘nalishlarning eng muhimlaridan biri — mavjud uglevodorod zaxiralarini kengaytirish orqali resurs bazasini mustahkamlashdan iborat. Uglevodorodlar, ya’ni neft va tabiiy gaz konlari mamlakat iqtisodiyotining energetik asosi bo‘lib, sanoatni rivojlantirishda, aholini issiqlik va elektr energiyasi bilan ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda respublika ichida energiyaga bo‘lgan talab keskin ortib borayotganligi bois, yangi konlarni izlash va mavjudlarini chuqurroq o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda geologik qidiruv ishlariga yanada kengroq ko‘lamda yondashish zaruriyati tug‘ilmoqda. Ayniqsa, ilgari to‘liq o‘rganilmagan yoki chuqur qatlamlarda joylashgan hududlarni o‘z ichiga olgan yangi istiqbolli zonalarni o‘rganish talab etilmoqda. Misol uchun, quyidagi yo‘nalishlar geologik qidiruv ishlari uchun ustuvor deb hisoblanmoqda: Ustyurt platosi, Buxoro-Xiva va Farg‘ona mintaqalari doirasidagi paleozoy davri qatlamlari; Surxondaryo viloyatida tuz ostida joylashgan yura davriga oid qatlamlar; shuningdek, Surxondaryo mintaqasining Uchqizil–Mirshodin zonasidagi istiqbolli hududlar. Bundan tashqari, O‘rta-Sirdaryo depressiyasi hamda Zarafshon chuqurligi kabi ilgari yetarlicha o‘rganilmagan yangi geologik mintaqalar ham alohida e‘tiborni talab qilmoqda.

2021 yilgacha bo‘lgan davrda respublikaning turli hududlarida geologik qidiruv ishlarini olib borish bo‘yicha bir nechta investitsion loyihalar ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan. Jumladan, Qo‘ng‘irot uchastkasi, Boysun va Surxon bloklari,

Xorazm viloyati, shuningdek, Meshekli-Tuzkoy investitsion neft-gaz maydonlarida ishlar olib borilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar xorijiy va mahalliy investorlar hamkorligida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, respublikada neft va gaz zaxiralarini aniqlash va qazib olish bo'yicha an'anaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda, noan'anaviy uglevodorod manbalarini — masalan, slan gazlari yoki zich tog' jinslaridagi neftlarni o'rganish va ulardan foydalanish ustida ham izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa mavjud konlardan tashqari yangi imkoniyatlarni ochishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan geologik qidiruv tadbirlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida, 2022 yilga kelib O'zbekistonning uglevodorod zaxiralari salohiyatini 2014 yildagi ko'rsatkichlarga nisbatan 1,5 baravarga oshirish imkoni yaratiladi. Bu esa mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini kuchaytirish va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumatining asosiy maqsadlaridan biri neft-gaz resurslaridan samarali foydalanish bilan birga, alternativ energiya manbalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2030-yilgacha mamlakatda quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish bo'yicha qator xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, gaz va gaz-kimyoh mahsulotlari hali ham asosiy eksport va ichki energiya manbai bo'lib qolmoqda.

Yangi "Energetika strategiyasi – 2030"ga muvofiq, O'zbekiston gaz-kimyoh sanoatini chuqur qayta ishlash asosida rivojlantirib, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarishni maqsad qilgan. Shu tariqa mamlakat o'z energetik mustaqilligini ta'minlashda izchil harakat qilmoqda.

Neft va gaz sanoatini bozor mexanizmlari asosida rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunday yondashuv sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish, tashish va qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Raqobatning kuchayishi nafaqat mahsulot sifatining yuksalishiga, balki iste'molchilarni tabiiy gaz va boshqa energetik resurslar bilan barqaror va uzluksiz ta'minlash imkoniyatining kengayishiga olib keladi.

Shu bilan birga, sohadagi bozor tamoyillariga asoslangan yondashuv moliyaviy resurslar bilan bir qatorda ilg'or texnologiyalar va boy tajribaga ega xorijiy hamda mahalliy investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Neft va gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilish esa innovatsion yechimlarning keng tatbiq etilishi, ishlab chiqarish hajmining ko'payishi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda neft-gaz tarmog'ida raqamlashtirish jarayonlari sanoatning raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'li sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida murakkab texnologik jarayonlarni modellashtirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Sinov va xatolik yo'li bilan vaqt va mablag' sarflab o'rganish o'rniga, ilgari tuzilgan modellar asosida eng optimal ssenariy tanlab olinmoqda. Bir necha soatlik virtual simulyatsiyalar bir necha oylik tajriba-sinov jarayonlarini muvaffaqiyatli almashtira oladi, bu esa nafaqat vaqtdan yutish, balki geologik shakllanishlar va qazib olish jarayonlarini aniqroq bashorat qilish imkonini beradi. Buning natijasida esa yillab qilinadigan ishlar qisqa muddatda amalga oshiriladi, neft qazib olish hajmi esa 1,5–2 baravarga oshadi.

Neft-gaz sanoatini ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya vositalarini keng joriy qilish va avtomatlashtirishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi "IKS Xolding" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Yoqilg'i-energetika kompleksini avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo'yicha kompleks rivojlantirish konsepsiyasi"ni ishlab chiqmoqda. Ushbu konsepsiya sanoatning joriy holati, istiqboldagi maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda, texnologik yangilanishlar asosida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan.

Umuman olganda, O'zbekistonda neft va gaz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarini muvozanatli tarzda uyg'unlashtirgan holda, energetik xavfsizlikni ta'minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, hamda bozor ehtiyojlariga mos ravishda energiya yetkazib berishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Soha faoliyatining shaffofligi, raqobatbardoshligi va innovatsion rivoji nafaqat milliy iqtisodiyot, balki xalqaro energetika bozorida ham O'zbekistonning mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekiston neft va gaz sanoati strategik ahamiyat kasb etgan tarmoq sifatida sezilarli taraqqiyotga erishdi. Dastlabki yillarda sohani milliylashtirish, infratuzilmani shakllantirish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish orqali boshlangan islohotlar hozirgi kunda o'zining samaralarini bermoqda. Energetika xavfsizligi, eksport salohiyatining ortishi, yangi texnologiyalar joriy etilishi va xalqaro hamkorlik O'zbekistonni mintaqadagi muhim energetik markazga aylantirmoqda. Yaqin istiqbolda neft va gaz sanoati mamlakatning iqtisodiy suvereniteti va raqobatbardoshligining kafolati sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘ulomov S. va boshqalar. “O‘zbekiston iqtisodiyoti”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
2. Kamilov B.A. “Energetika xavfsizligi va gaz eksport siyosati” // Iqtisodiy tahlil jurnali, 2022.
3. Yusupov I. “Mustaqillik yillarida O‘zbekiston sanoatining taraqqiyoti”, Ilmiy maqola, 2020.